

**ALISHER NAVOIYNING “NASOYIM UL-MUHABBAT” ASARIDAGI BIR RIVOYAT XUSUSIDA****Ikrom Xolmuratov**

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand veterinariya meditsinasi instituti Nukus filiali  
“Tabiiy va gumanitar fanlari” kafedrasida katta o'qituvchi  
ikram68@list.ru

**ANNOTASIYA**

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asarida keltirilgan bir rivoyatdagi buyuk zot Sulton Uvays Qorayniy haqida, uning Janubiy Qoraqalpog'istonda joylashgan Sulton Uvays Qorayniyning muqaddas ziyoratgohi to'g'risidagi ma'lumotlar bilan bog'liq bo'lgan voqeyalar bilan tanishasiz.

**Tayanch so'zlar:** *Sulton Uvays Qorayniy, Uhud tog'i, valiy, Yaman, Muhammad Sallolohu alayhi vassalam, Yuzboy, Beruniy, Hazrat Ali, Xorazm.*

**Annotasiya:**

В этой статье вы узнаете о великом султани Султани Увайс Карайни в Насаим уль-Муhabбат Алишера Навои и о его информации о святыне султана Увайса Карайни в Южном Каракалпакстане.

**Ключевые слова:** Султан Увайс Карайни, гора Ухуд, Вали, Йемен, Мухаммад (мир ему и благословение Аллаха), Юзбой, Беруни, Хазрат Али, Хорезм.

In this article, you will learn about Alisher Navoi's Nasoyim ul-Muhabbat, a legend about the great Sultan Uvays Qarayni, and about the holy shrine of Sultan Uvays Qarayni in Southern Karakalpakstan.

**Keywords:** *Sultan Uvays Qarayni, Mount Uhud, Wali, Yemen, Muhammad (peace and blessings of Allaah be upon him), Yuzboy, Beruni, Hazrat Ali, Khorezm.*

Jamiyatning diniy-ruhiy asoslarini, xalqimizning ming yillik ma'naviy-axloqiy yuksalish tajribasini o'zida jamlagan Islom madaniyatini tiklash o'z taqdirini o'zi belgilash, tarixiy xotira, milliy g'urur va madaniy-tarixiy yagonalikka ega bo'lish yo'lidagi eng muhim vazifalardan biridir. Qolaversa, har qanday milliy adabiyot dinning ruhoniyatiga doimo kuchli ehtiyoj sezadi, undan oziqlanadi.

Buyuk so'z mulkining sultoni Alisher Navoiy o'zining “Nasoyim ul-muhabbat” asarini 1495-1496 yillarda yozgan. Ushbu asar asosan tasavvuf valiyalaridan sanalgan 770 ta Xudoning nazari tushgan buyuk shaxslar hayoti haqida rivoyatlar qilinadi.

“Uvays va uvaysiylik” nomli rivoyatida Shays Uvays Qorayniy haqida so'z yuritiladi. Uhud urushida Rasululloh (s.a.v.)ning muborak tishlari shaxid bo'lganini eshitib, mutobaat (tobe bo'lmoq, bo'ysinmoq, izdoshlik) uchun o'ttiz ikki tishini sindirib tashladi. Har birini ushatganidan so'ng, balkim bu tish emasdir, deb boshqasini ushatar edi. Hazrat Rasululloh (s.a.v.)ni ko'rmagandi. Rasululloh (s.a.v.) ham u kishini zohir ko'zi bilan ko'rmagandilar. Ma'no va ruhiyat yuzidan Uvaysni tarbiyat qilgandilar. Shu sababdan, bu toifadan zohir yuzidan kimniki piri ma'lum bo'lmasa va mashoyixdan birining ruhi uni tarbiyat qilgan bo'lsa, uni **uvaysiy** derlar [Navoiy.2018.11].

Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy tumanida **Sulton Uvays Qorayniy** ziyoratgohi joylashgan. Asli Yaman mamlakatidan kelib chiqqan bu ulug' zot Turkiston, Eron, Pokiston, Arabiston, Turkiya, Afg'oniston, Hindiston xalqlari orasida ma'lumu mashhur. Hozirgi kunda ham uning nomini bu o'kalarda hurmat bilan tilga oladilar. Hozirda Qoraqalpog'istondagi ulkan tog' tizmasi shu avliyo nomi bilan ataladi. Sababi, tog'ning ko'ksida qabriston Sulton Uvays bobo maqbarasi qad ko'tarib turibdi.

“Uvays”, “Valiy” degan tasavvufiy atama Yamanda tug'ilib, Xorazmda yashagan mashhur Sulton Uvays Qorayn-Qoran nomidan olingan. Hazrati Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-Muhabbat” risolasida Sulton Uvays Qorayniy haqida: “Shayx Qorayniy (Allohning payg'ambari aytgan: Uvays Qorayniy ehson va mehribonligi bilan tobinlarning yaxshisidir) goh-goh hojai olam muborak yuzini Yaman sari qilib, der erdikim: (Men Xudoning shaxsini Yaman tomondan topdim)”. [Navoiy.2018.9].

Sulton Uvays Qorayniy manbalarda keltirilishicha melodiylar 625-yilda Yaman arab davlatining Qorayniy qishlog'ida dunyoga kelgan. Payg'ambarimiz Muhammad Sallolohu alayhi vassalamga payg'ambarlik vahiy qilingandan keyin me'roj kechasida payg'ambarimiz hazrati Muso alayhissalom payg'ambarimizga aytadilar: "Men Alloh taolodan do'st tiladim. Devonai Burx deganlarki, siz ham bir do'st tilang. Shunda payg'ambarimiz Sallolohu alayhi vassalam Sulton Uvaysni Alloh taolodan tilaganlar. U kishi dunyoga kelgan kuni butun olamni mushki-anbar isi tutgan. Payg'ambarimiz tong namozidan chiqib, bu isni anglab, magaram bugun Sulton Uvays dunyoga keldi, deganlar.

Sulton Uvays o'sib kamolotga yetishgach, el-ulus uni "aqli komil", "ma'rifati isomil", "qanoati tamom", "shukronai ne'mati ilohiy" kabi sifatlar bilan ehtirom eta boshlaydi.

Aytishlaricha, u kishi doim darveshnoma bo'lib yurgani uchun Yaman xalqi o'z yurtidan quvib chiqaradi. Shunda Sulton Uvays onasi bilan Xorazm yurtiga kelib, tog'da makon topadi. O'n to'rt yoshga to'lganlarida shu yerning mashhur boylaridan hisoblangan Yuzboy degan kishiga cho'pon bo'lib, uning qo'y va tuyalarini boqib yuradi.

Hud tog'idagi mashhur urushda 70 kishi halok bo'ladi. Payg'ambarimiz sallolohu alayhi vassalamning bir tishlari sinib tushadi. Bu xabarni eshitgan Sulton Uvays ham qattiq qayg'urib, hunibiyron bo'lib yig'laydilar, so'ngra o'zlarining o'ttiz ikki tishlarini urib tushiradilar. Bu bilan Sulton Uvays bobomiz payg'ambarimizga bo'lgan cheksiz sadoqatini ifodalaydilar. [Beruniy.1998.19]

Darhaqiqat, melodiylar 656-yilda, hazrati Ali Fors mamlakatlari xalqini musulmon qilmoq niyatida g'azot boshlaydi. Bu harakatda barcha musulmon mamlakatlari ishtirok etadilar. Jangu jadallardan birida Xorazm elidan Sulton Uvays ham qatnashadilar va 659 yili So'fiyon degan shaharda shahid bo'ladi. Shundan keyin uning jasadini o'z yurtiga olib ketish uchun musulmon davlatlari tortishib qoladilar. Shunda hazrati Ali ularni tinchlantirib, tong otguncha sabr qilishlarini aytadi. U kechasi tushida payg'ambarimiz Muhammad Sallolohu alayhi vassalamni ko'radi, go'yoki ul hazratning qo'llarida Sulton Uvaysning kesilgan boshi bo'lib, uni janobi Rasulloh silab o'tirgan bo'ladi. Payg'ambarimiz Sulton Uvaysning vatani Xorazmdur, uni shu yerga dafn etinglar, deydi. Ertalab hazrati Ali o'rinlaridan turib, podshohlarga tobut yasashlarini buyuradilar. Yasalgan yettita tobutda payg'ambarimizning karomatlari bilan Sulton Uvays hazratning jasadlari ko'rinadi. Haqiqiy jasad Xorazm podshohi yasatgan tobutga solinib, Xorazmga yuboriladi. Ahli ulamoning fatvosiga binoan marhum butun umri o'tgan toqqa dafn etiladi. Bu tog' hozirgi kunda Sulton Uvays tog'i deb yuritiladi. Ana shu kundan boshlab bu joyda muqaddas ziyoratgoh vujudga kelgan.

## REFERENCES

- [1] Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. Toshkent, 2018. 11-b.
- [2] Beruniy avlodlari. Qoraqalpog'iston., 1998. 19-20-b.
- [3] [www.islom.uz](http://www.islom.uz)
- [4] [www.hidoyat.uz](http://www.hidoyat.uz)
- [5] [www.muslim.uz](http://www.muslim.uz)